



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No6(6)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 248 sahifa,
22-iyun, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

“Kitobxonlar klubi” modelining ingliz tili to‘garak mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning kognitiv kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmlari.....	10
Madaminova Gulzira Gulamkadirovna	
Bo‘lajak pedagoglarning kasbiy faoliyatida suggestiv yondashuvning o‘rni	14
Arolov Davronjon Davlataliyevich	
Akmeologik yondashuv asosida maktabgacha ta‘lim direktor o‘rinbosarlarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmini takomillashtirish	19
Asatullayeva Sitora Dilmurod qizi	
Hozirgi o‘zbek tilida neologizmlarning tarixi va bugungi kun taraqqiyoti.....	22
Bektosheva Mehinbonu Abdumalik qizi	
Maktabgacha ta‘lim tashkilotlari bolalarida jamoada ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	26
Djurayeva Dilfuza Nuriddin qizi	
Korpus lingvistikasi vositalari yordamida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining til tahlili ko‘nikmalarini shakllantirish metodikasi.....	30
Eshonqulova Sarvinoz Yashinovna	
Talabalarning shaxsiy sifatlarini rivojlantirishda sun‘iy intellektning o‘rni va ahamiyati.....	35
Hojiyeva Nasiba Bahodirovna	
Logopedik mashg‘ulotlarni tashkil etish va rejalashtirish moduliga oid mustaqil ta‘lim topshiriqlarini integrativ modellashtirishning innovatsion texnologiyalari.....	39
Ibroximova O‘g‘iloy Inomjon qizi	
Jismoniy tarbiya darslarida ortiqcha vaznli bolalarga differensial yondashuvning ahamiyati	43
Yuldashev Bobirjon Noibjon o‘g‘li	
Maktabgacha ta‘lim tashkilotida xalq og‘zaki ijodi vositasida bolalarning axloqiy sifatlarini shakllantirishning ahamiyati.....	48
Muradxanova Munisaxon Ikrom qizi	
Bo‘lajak psixologlarda altruistik xulq motivlarini rivojlantirishning psixologik imkoniyatlari	54
Nusratova Mexriniso Baxshilloevna	
Inklyuziv ta‘lim tushunchasi va uning zamonaviy pedagogik paradigmalar tizimidagi o‘rni.....	59
Pulatova Dilfuza Azamkulovna	
Magistrlarda “Imposter sindromi”ni yengish orqali kreativ salohiyatni rivojlantirishning psixologik mexanizmlari.....	66
Qayumov Baxtiyor Zokirjon o‘g‘li	
Kichik maktab yoshidagi bolalar nutqining fonematik rivojlanishi	70
Qurbonova Sevara Suyunovna	
Mikrobiologiya ta‘limida individual pedagogik texnologiyalarni joriy etish mexanizmlari	74
Raxmatov Oxunjon Soibjonovich	
“Estetik tarbiya”, “kreativ kompetensiya”, “estetik tarbiya mexanizmlari” tushunchalarining konseptual asoslari.....	79
Saidova Feruza Akramovna	
Zamonaviy ta‘lim jarayonida neyropedagogika yordamida nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirish.....	84
Sidiqova Yulduz Sobirovna	
“So‘nggi jadid” Begali Qosimovning ilmiy-pedagogik merosi.....	88
Toxirova Dilshoda Inom qizi	
Ona tili darslarida o‘qib tushunish ko‘nikmasini rivojlantiruvchi mashq va topshiriqlar ustida ishlash	92
Turg‘unova Nilufar Muxiddin qizi	
Ingliz, golland va o‘zbek tillaridagi frazeologizmlarning lingvostatistik xususiyatlari.....	96
Xaydarova Go‘zalxon	



Maktabgacha yoshdagi bolalarda hayotiy kompetensiyalarni shakllantirishda yumshoq ko'nikmalarning ahamiyati.....	101
<i>Xolmatova Dilshoda Sherali qizi</i>	
Farzandlarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishda oilaning pedagogik imkoniyatlari	105
<i>Yusupova Diloromxon Sabirdjanovna</i>	
Yoshlarda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish orqali sotsial manipulyativ ta'sirlarga psixologik barqarorlikni shakllantirish.....	109
<i>Qosimova Sarvinoz Baxtiyorovna</i>	
O'quvchilarda modellashtirish ko'nikmalarini shakllantirishga ko'maklashadigan faoliyat usullari	114
<i>Abdurazzaqov O'ktam Abduqayumovich</i>	
Dizartriya shakllarining klinik-patogenetik tahlili va differensial diagnostikasi	120
<i>Axmedova V. T.</i>	
Boshlang'ich sinflarda fanlararo yondashuvga asoslangan integrativ topshiriqlar ishlab chiqishning uslubiy asoslari.....	127
<i>Elmurodova Inoyat Abdumutalibovna</i>	
Deviant xulq-atvorli o'smirlar ijtimoiylashuvining psixologik determinantlari.....	132
<i>Elov Ziyodullo Sattorovich</i>	
Sun'iy intellekt texnologiyalari asosida talabalar o'quv natijalarini baholashning pedagogik modeli.....	138
<i>Ernazarov Mirzohid Yo'ldosh o'g'li</i>	
Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida biokimyo fanini raqamli texnologiyalar asosida o'qitish metodikasi	145
<i>Mamadaliyeva Zarina Raxmat qizi</i>	
Boshlang'ich ta'limda kognitiv tilshunoslikni joriy etish masalalar	150
<i>Mamatova Gulshan Amankulovna</i>	
Doston musiqiy merosini o'rganishni uslubiy takomillashtirish mazmuni.....	153
<i>Qo'shayev Ilhom Axtamovich, Nasirova Sevinch Ismatovna</i>	
"Elektr yoritish" fanida mustaqil ta'limning zamonaviy shakllari.....	157
<i>Nasretdinova Feruza Nabiyeвна</i>	
Maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarda sog'lom turmush tarzi madaniyatini shakllantirish	162
<i>Nazarova Dildora Asatovna, Kuchkorova Robiya Shuxrat qizi</i>	
Dual ta'limda oliy ta'lim va maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikning mazmuni.....	167
<i>Qoraboyeva Zohidaxon To'lanboyevna, Tursunbayeva Sevara Abdullo qizi</i>	
A Methodological Model for Developing Pedagogical Reflection in Pre-Service EFL Teachers.....	172
<i>Rahimberdiyeva Maftuna Rakhimberdi kizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda sog'lom turmush tarzining kasbiy kompetentlikka ta'siri	177
<i>Raximova Saboxat Qaxramon qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda interaktiv texnologiyalar va faol ta'lim metodlarining samaradorligi	182
<i>Safarova Nigora Nasilloevna</i>	
Maktabgacha ta'lim jarayonida interfaol usullarning mazmuni, turlari va funksional ahamiyati.....	190
<i>Safarova Soliha Ilhomovna</i>	
Talabalarni ma'naviy tarbiyalash jarayonida diagnostik metodlardan samarali foydalanishning ahamiyati...	196
<i>Saotmuratova Zebo Yuldash qizi</i>	
Musiqqa ta'limida interfaol metodlardan foydalanishning didaktik imkoniyatlari.....	200
<i>Saparov Raxim Muratbayevich</i>	
Maktabgacha yoshdagi tarbiyalanuvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirish ijtimoiy zarurat sifatida.....	204
<i>Xolmatova Yodgoroy Baxtiyorjon qizi</i>	
Energetika fanlarini o'qitishda sun'iy intellektdan foydalanishning pedagogik afzalliklari.....	208
<i>Zoxidov Iqboljon Zokirjonovich</i>	
Методическая модель контекстуального обучения в формировании лингвокультурной компетенции при обучении русскому языку в национальных группах	213
<i>Рустамова Ферузaxon Махмуджановна</i>	

Integrating Artificial Intelligence into EFL Academic Writing Instruction: Opportunities, Challenges, and Pedagogical Implications.....	218
Allamurodov Elyor Tursun ugli	
Sahna nutqida adabiy tur va janrlarning metodik talqini.....	223
Dilrabo Jumanova	
Sun'iy intellekt asosidagi ta'lim ekotizimi: imkoniyatlar va xavflar	227
Oqil Ochilov Lutfullo o'g'li	
Z avlod bilan ishlashda ta'lim va tarbiyaga oid zamonaviy tendensiyalar	232
Ravshanov Sanjar Tolibjonovich	
Talabalarni ma'naviy tarbiyalash jarayonida diagnostik metodlardan samarali foydalanishning ahamiyati...	235
Saotmuratova Zebo Yuldash qizi	
Tarixiy-ilmiy materiallar va zamonaviy texnologiyalar integratsiyasi asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining geometrik tafakkurini rivojlantirish metodikasi.....	239
Toshpulatova Mamura Ismailovna, Mannonova Dilafro'z Ravshan qizi	
Davlat-xususiy sherikchilik asosidagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarini boshqarish va muvofiqlashtirish ...	244
Xakimov Abdug'ulom Soyibjonovich	



TALABALARNI MA'NAVIY TARBIYALASH JARAYONIDA DIAGNOSTIK METODLARDAN SAMARALI FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Saotmuratova Zebo Yuldash qizi
 Termiz davlat universiteti 2-bosqich doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada talabalarni ma'naviy tarbiyalash jarayonida diagnostik metodlardan samarali foydalanishning mazmuni, pedagogik zarurati va amaliy ahamiyati yoritilgan. Talaba-yoshlarning ma'naviy dunyoqarashi, axloqiy qarashlari, qadriyatlari, fuqarolik mas'uliyati, vatanparvarlik hissi, ijtimoiy faolligi hamda xulq-atvoridagi o'zgarishlarni aniqlashda pedagogik diagnostikaning imkoniyatlari tahlil qilingan.

Ma'naviy tarbiya natijalarini baholashda kuzatish, suhbat, anketa, so'rovnomma, test, o'z-o'zini baholash, ekspert baholash, pedagogik vaziyatlar tahlili va monitoring metodlaridan kompleks foydalanish zarurligi asoslangan. Diagnostik ma'lumotlar talabalar bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlarning maqsadi, mazmuni, shakl va metodlarini to'g'ri belgilashga xizmat qilishi ko'rsatib berilgan. Shuningdek, diagnostika natijalari asosida talabalarning individual ma'naviy ehtiyojlari, qiziqishlari, mavjud muammolari va rivojlanish dinamikasini aniqlash imkoniyati mavjudligi ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: talaba, ma'naviy tarbiya, pedagogik diagnostika, diagnostik metod, ma'naviy qadriyat, axloqiy fazilat, vatanparvarlik, pedagogik kuzatish, monitoring, individual yondashuv.

Abstract: This article examines the content, pedagogical necessity, and practical significance of the effective use of diagnostic methods in the process of students' spiritual and moral education. The possibilities of pedagogical diagnostics in identifying students' spiritual outlook, moral attitudes, values, civic responsibility, patriotism, social activity, and behavioral changes are analyzed.

The study substantiates the need for the integrated application of observation, interviews, questionnaires, surveys, tests, self-assessment, expert evaluation, pedagogical situation analysis, and monitoring methods in assessing the outcomes of spiritual and moral education. It is demonstrated that diagnostic data contribute to the proper determination of the goals, content, forms, and methods of educational work with students. Furthermore, the article emphasizes that diagnostic results make it possible to identify students' individual spiritual needs, interests, existing problems, and developmental dynamics.

Key words: student, spiritual and moral education, pedagogical diagnostics, diagnostic method, spiritual values, moral qualities, patriotism, pedagogical observation, monitoring, individualized approach.

Аннотация: В данной статье раскрываются содержание, педагогическая необходимость и практическая значимость эффективного использования диагностических методов в процессе духовно-нравственного воспитания студентов. Проанализированы возможности педагогической диагностики при выявлении духовного мировоззрения студентов, их нравственных взглядов, ценностей, гражданской ответственности, чувства патриотизма, социальной активности и изменений в поведении.

Обоснована необходимость комплексного применения методов наблюдения, беседы, анкетирования, опроса, тестирования, самооценки, экспертной оценки, анализа педагогических ситуаций и мониторинга при оценке результатов духовно-нравственного воспитания. Показано, что диагностические данные способствуют правильному определению целей, содержания, форм и методов воспитательной работы со студентами. Также подчёркивается возможность выявления индивидуальных духовных потребностей, интересов, существующих проблем и динамики развития студентов на основе результатов диагностики.

Ключевые слова: студент, духовно-нравственное воспитание, педагогическая диагностика, диагностический метод, духовные ценности, нравственные качества, патриотизм, педагогическое наблюдение, мониторинг, индивидуальный подход.

KIRISH

Bugungi globallashuv, axborot oqimining tezlashuvi va ijtimoiy munosabatlarning murakkablashuvi sharoitida yoshlarning ma'naviy dunyosini boyitish, ularda mustahkam axloqiy e'tiqod, fuqarolik mas'uliyati, vatanparvarlik va ijtimoiy faollikni shakllantirish oliy ta'lim tizimining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Talaba-yoshlar jamiyatning intellektual va ma'naviy salohiyatini belgilovchi asosiy kuch bo'lib, ularning dunyoqarashi, qadriyatlari va xulq-atvori mamlakatning kelajak taraqqiyotiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli oliy ta'lim muassasalarida ma'naviy-tarbiyaviy ishlarni aniq maqsad, ilmiy asos va zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida tashkil etish zarur.

Talabalarni ma'naviy tarbiyalash faqat turli tadbirlar, uchrashuvlar yoki targ'ibot ishlari bilan cheklanib qolmasligi lozim. Mazkur jarayon talabani ichki dunyosi, hayotiy qarashlari, axloqiy pozitsiyasi, ijtimoiy munosabatlari va shaxsiy ehtiyojlarini chuqur o'rganishni talab etadi. Har bir talabani ma'naviy rivojlanish darajasi, qiziqishi, ehtiyoji va muammolari bir-biridan farq qilgani uchun ularga bir xil tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish kutilgan natijani bermasligi mumkin. Bu esa ma'naviy tarbiya jarayonida individual va differensial yondashuvni kuchaytirishni taqozo etadi.

Mazkur vazifalarni amalga oshirishda pedagogik diagnostika alohida ahamiyat kasb etadi. Pedagogik diagnostika orqali talabalar ma'naviy-axloqiy sifatlari, qadriyatlarga munosabati, ijtimoiy faolligi, fuqarolik pozitsiyasi, jamoa bilan hamkorlik qilish ko'nikmalari va xulq-atvoridagi o'zgarishlar aniqlanadi. Diagnostik metodlar tarbiyaviy jarayonning mavjud holatini o'rganish, muammoli jihatlarni belgilash, pedagogik ta'sir yo'nalishlarini tanlash hamda erishilgan natijalarni baholash imkonini beradi.

Kuzatish, suhbat, anketa, so'rovnoma, test, ekspert baholash, o'z-o'zini baholash, pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish va monitoring kabi metodlardan foydalanish talabalar ma'naviy kamolotining real holati haqida ishonchli ma'lumot olishga xizmat qiladi. Mazkur metodlarning alohida-alohida emas, balki o'zaro uyg'unlikda qo'llanilishi diagnostika natijalarining xolisligi va aniqligini oshiradi. Olingan ma'lumotlar asosida tarbiyaviy ishlarning mazmuni qayta ko'rib chiqiladi, maqsad va vazifalar aniqlashtiriladi hamda talabalar ehtiyojlariga mos pedagogik chora-tadbirlar belgilanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Talabalarni ma'naviy tarbiyalash va mazkur jarayonning samaradorligini diagnostik metodlar orqali aniqlash masalasi pedagogika, psixologiya, falsafa hamda sotsiologiya fanlarida turli yo'nalishlarda tadqiq etilgan. Mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili ma'naviy tarbiya shaxsning axloqiy qarashlari, qadriyatlari, e'tiqodi, ijtimoiy mas'uliyati va xulq-atvorini shakllantirishga qaratilgan uzluksiz pedagogik jarayon ekanligini ko'rsatadi. Shu sababli ma'naviy tarbiya natijalarini faqat tashqi xatti-harakatlar asosida emas, balki talabani ichki motivlari, qadriyatlarga munosabati, hayotiy maqsadlari va ijtimoiy pozitsiyasidagi o'zgarishlar orqali ham baholash zarur.

Sharq mutafakkirlarining ilmiy-ma'rifiy merosida insonning ma'naviy kamoloti, axloqiy fazilatlar va tarbiyasi masalasiga alohida e'tibor qaratilgan. Abu Nasr Forobiy insonning baxt-saodatga erishishini uning aqliy, axloqiy va ijtimoiy jihatdan yetukligi bilan bog'lagan. Mutafakkir qarashlarida fazilatli insonni shakllantirishda ta'lim va tarbiyaning o'zaro birligi ustuvor ahamiyat kasb etadi. Abu Ali ibn Sino esa tarbiyada bolaning individual xususiyatlari, qiziqishlari, qobiliyati va ruhiy holatini hisobga olish zarurligini ta'kidlagan. Mazkur fikrlar zamonaviy pedagogik diagnostikaning individual yondashuv tamoyili bilan bevosita uyg'unlashadi.

Alisher Navoiy asarlarida komil insonni tarbiyalash, halollik, adolat, saxovat, vatanparvarlik, insonparvarlik va ilmga intilish kabi ma'naviy-axloqiy fazilatlar keng yoritilgan. Navoiy talqinida insonning ma'naviy qiyofasi uning amaliy faoliyati, boshqalarga munosabati va jamiyat oldidagi mas'uliyatida namoyon bo'ladi. Shu jihatdan talabalarni ma'naviy tarbiyalash natijalarini aniqlashda ularning faqat nazariy bilimlarini emas, balki kundalik xulq-atvori, jamoaviy faoliyati va ijtimoiy tashabbuslarini ham o'rganish talab etiladi.

Abdulla Avloniy tarbiyani jamiyat taraqqiyoti va millat kelajagini belgilaydigan muhim omil sifatida baholagan. Uning axloqiy tarbiya to'g'risidagi qarashlarida yaxshi va yomon xulqni farqlash, insoniy fazilatlarini rivojlantirish hamda yoshlarni ijtimoiy hayotga tayyorlash masalalari yetakchi o'rin egallaydi. Avloniyning tarbiya haqidagi fikrlari ma'naviy-axloqiy sifatlarni maqsadli shakllantirish, muntazam kuzatish va natijalarni tahlil qilish zarurligini anglatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda ma'naviy tarbiya talaba shaxsining qadriyatli yo'nalishi, ma'naviy ehtiyoji, axloqiy ongi, ijtimoiy faolligi va fuqarolik mas'uliyatini rivojlantiruvchi tizimli jarayon sifatida izohlanadi. Tadqiqotchilar ma'naviy tarbiyaning samaradorligi ta'lim mazmuni, pedagogning shaxsiy namunasi, ijtimoiy muhit, jamoaviy faoliyat, oilaviy tarbiya va talabani mustaqil rivojlanishga bo'lgan ehtiyojiga bog'liq ekan-



ligini qayd etadilar. Mazkur omillarni o'rganish va ularning talabaga ta'sirini aniqlash pedagogik diagnostikaning muhim vazifalaridan biridir.

Talabalarni ma'naviy tarbiyalash jarayonida diagnostik metodlardan foydalanish tarbiyaviy faoliyatning mavjud holatini aniqlash, muammolar sabablarini ochib berish va keyingi pedagogik ta'sir yo'nalishlarini belgilash imkonini beradi. Ma'naviy tarbiya natijalarini baholashda faqat talabaning nazariy bilimlariga tayanish yetarli emas. Chunki ma'naviy rivojlanish uning qadriyatlarga munosabati, axloqiy tanlovi, xulq-atvori, ijtimoiy faolligi va o'z faoliyatini baholay olish qobiliyatida namoyon bo'ladi. Shu sababli diagnostika jarayonida kognitiv, motivatsion-qadriyatli, faoliyatli-xulqiy va refleksiv jihatlarni birgalikda o'rganish maqsadga muvofiqdir.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, diagnostik metodlarning faqat bittasidan foydalanish talabaning ma'naviy rivojlanish holatini to'liq aniqlash uchun yetarli emas. Ayrim talabalar anketa yoki test savollariga ijtimoiy jihatdan maqbul bo'lgan javoblarni berishlari mumkin, biroq ularning amaliy xulq-atvori mazkur javoblarga mos kelmasligi ehtimoli mavjud. Shu sababli bir metod orqali olingan ma'lumotlarni boshqa diagnostik metodlar natijalari bilan taqqoslash zarur. Bunday yondashuv diagnostika natijalarining ishonchliligi va obyektivligini oshiradi.

Talabalarining ma'naviy rivojlanganlik darajasini aniqlashda yuqori, o'rta va past darajalar belgilanishi mumkin. Yuqori darajadagi talabalar ma'naviy va axloqiy qadriyatlarning mohiyatini to'g'ri anglaydi, ularga ongli ravishda amal qiladi, jamoat ishlarida faol qatnashadi va o'z xatti-harakatlariga tanqidiy baho bera oladi. O'rta darajadagi talabalarda ma'naviy qadriyatlar haqida yetarli bilim mavjud bo'lsa-da, ularni amaliy faoliyatda barqaror namoyon etish holati muntazam kuzatilmaydi. Past darajadagi talabalarda esa ma'naviy tushunchalar yuzasidan bilimlarning yetarli emasligi, ijtimoiy faollikning sustligi, mas'uliyat hissining zaifligi va o'z xatti-harakatlarini tahlil qilish ko'nikmasining rivojlanmaganligi kuzatiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'tkazilgan tahlillar talabalarni ma'naviy tarbiyalash jarayonida diagnostik metodlardan foydalanish tarbiyaviy faoliyatning samaradorligini oshiruvchi muhim pedagogik vosita ekanligini ko'rsatadi. Ma'naviy tarbiya murakkab va ko'p omilli jarayon bo'lib, uning natijalari faqat talabaning ma'naviy tushunchalarni bilishi bilan cheklanmaydi. Mazkur jarayon talabaning qadriyatlarga munosabati, axloqiy qaror qabul qilishi, jamoa bilan hamkorligi, fuqarolik mas'uliyati, ijtimoiy faolligi va o'z xulq-atvorini baholash qobiliyatida namoyon bo'ladi. Shu sababli ma'naviy tarbiya natijalarini aniqlashda kompleks diagnostik yondashuvdan foydalanish zarur.

Tahlil natijalari diagnostik metodlarning har biri muayyan pedagogik imkoniyatga ega ekanligini ko'rsatdi. So'rovnoma va testlar talabalarining ma'naviy bilimlari, qarashlari hamda qadriyatli yo'nalishlari haqida umumiy ma'lumot beradi. Kuzatish metodi esa ularning tabiiy ta'lim va ijtimoiy muhitdagi real xulq-atvorini o'rganishga xizmat qiladi. Suhbat, intervyu va pedagogik vaziyatlar tahlili talabalarining ma'naviy tanlovi, ichki motivlari hamda hayotiy pozitsiyasini aniqlash imkonini beradi. O'z-o'zini baholash va refleksiya metodlari esa shaxsning o'z xatti-harakatlariga tanqidiy munosabatini shakllantirishda muhim o'rin tutadi.

Biroq diagnostik metodlarning hech biri alohida qo'llanganda talabaning ma'naviy rivojlanish holatini to'liq aks ettirmaydi. Masalan, talaba anketa savollariga ijtimoiy jihatdan ma'qullangan javoblarni berishi, amaliy faoliyatda esa boshqa xulq-atvorni namoyon qilishi mumkin. Aksincha, ayrim talabalar o'z ma'naviy sifatlarini past baholasalar-da, jamoaviy faoliyatda mas'uliyat, tashabbuskorlik va insonparvarlikni yuqori darajada ko'rsatishlari mumkin. Demak, diagnostika natijalarining ishonchliligini ta'minlash uchun bir necha metod orqali olingan ma'lumotlarni o'zaro taqqoslash lozim.

Ma'naviy tarbiya jarayonini diagnostika qilishda mezon va ko'rsatkichlarning aniq belgilanishi alohida ahamiyatga ega. Tadqiqot doirasida kognitiv, motivatsion-qadriyatli, faoliyatli-xulqiy va refleksiv mezonlarning tanlanishi talaba shaxsining ma'naviy rivojlanishini yaxlit baholash imkonini beradi. Kognitiv mezon ma'naviy tushunchalarni bilish darajasini ifodalasa, motivatsion-qadriyatli mezon ushbu tushunchalarning shaxsiy e'tiqodga aylanganlik holatini ko'rsatadi. Faoliyatli-xulqiy mezon qadriyatlarning amaliy xatti-harakatlarda namoyon bo'lishini, refleksiv mezon esa talabaning o'zini anglash va o'zini takomillashtirish qobiliyatini aniqlaydi.

Muhokama natijalaridan ma'lum bo'ladiki, oliy ta'lim muassasalarida ma'naviy-tarbiyaviy ishlarni baholashda faqat o'tkazilgan tadbirlar soniga tayanish yetarli emas. Tadbirlar miqdori tashkiliy faollikni ko'rsatishi mumkin, biroq ular talaba shaxsida yuz bergan sifat o'zgarishlarini to'liq aks ettirmaydi. Ma'naviy-tarbiyaviy faoliyatning haqiqiy samaradorligi talabalar dunyoqarashi, qadriyatlar tizimi, muomala madaniyati, ijtimoiy mas'uliyati va xulq-atvoridagi ijobiy o'zgarishlar bilan belgilanadi.

Diagnostik natijalar tarbiyaviy faoliyatni individuallashtirish uchun ham muhim asos bo'lib xizmat qiladi. Talabalarining ma'naviy ehtiyojlari, qiziqishlari, ijtimoiy tajribasi va shaxsiy muammolari turlicha bo'lganligi sababli barcha talabalar uchun bir xil tarbiyaviy dasturdan foydalanish yuqori natija bermasligi mumkin. Diagnostika asosida ayrim talabalar bilan individual suhbatlar tashkil etish, boshqalarini jamoaviy yoki ijtimoiy loyihalarga jalb qilish, ayrimlariga esa refleksiv va ijodiy topshiriqlar berish mumkin. Bunday differensial yondashuv tarbiyaviy ta'sirning aniq yo'naltirilishini ta'minlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Talabalarni ma'naviy tarbiyalash jarayonida diagnostik metodlardan samarali foydalanish tarbiyaviy faoliyatning ilmiy asoslanganligi, maqsadliligi va natijadorligini ta'minlaydi. Pedagogik diagnostika orqali talabalarning ma'naviy-axloqiy qarashlari, qadriyatli yo'nalishlari, fuqarolik pozitsiyasi, vatanparvarlik tuyg'usi, ijtimoiy faolligi, muomala madaniyati hamda o'z xatti-harakatlariga refleksiv munosabati aniqlanadi. Bu esa ma'naviy-tarbiyaviy ishlarni talabalarning real ehtiyojlari va individual xususiyatlariga mos ravishda tashkil etish imkonini beradi.

Tadqiqot tahlillari shuni ko'rsatdiki, ma'naviy tarbiya natijalarini faqat talabaning nazariy bilimlari yoki o'tkazilgan tadbirlar soni bilan baholash yetarli emas. Asosiy natija talabaning dunyoqarashi, qadriyatlar tizimi, axloqiy tanlovi, xulq-atvori va ijtimoiy munosabatlarida yuzaga kelgan sifat o'zgarishlari bilan belgilanadi. Shu sababli diagnostika jarayonida kognitiv, motivatsion-qadriyatli, faoliyatli-xulqiy va refleksiv mezonlardan kompleks foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Kuzatish, suhbat, anketa, so'rovnomma, test, ekspert baholash, o'z-o'zini baholash, pedagogik vaziyatlar tahlili va monitoring metodlari bir-birini to'ldiruvchi vositalar hisoblanadi. Ularning o'zaro uyg'unlikda qo'llanilishi diagnostik ma'lumotlarning xolisligi, ishonchligi va aniqligini oshiradi. Birgina metod asosida xulosa chiqarish esa talabaning ma'naviy rivojlanish holatini to'liq aks ettirmasligi mumkin.

Diagnostik metodlardan foydalanish boshlang'ich, oraliq va yakuniy bosqichlarda amalga oshirilishi lozim. Boshlang'ich diagnostika talabaning mavjud ma'naviy holatini aniqlasa, oraliq diagnostika pedagogik ta'sir samaradorligini kuzatishga, yakuniy diagnostika esa erishilgan natijalarni baholashga xizmat qiladi. Bunday uzluksiz monitoring tarbiyaviy jarayonni o'z vaqtida korreksiya qilish va takomillashtirish imkonini yaratadi.

Shuningdek, diagnostika natijalari talabalarni salbiy guruhlariga ajratish yoki ularga baho berish vositasi sifatida emas, balki shaxsiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlash mexanizmi sifatida qo'llanilishi kerak. Diagnostik faoliyatda xolislik, maxfiylik, insonparvarlik, tizimlilik, uzluksizlik va individual yondashuv tamoyillariga qat'iy amal qilish zarur. Pedagog olingan natijalarni talabaning ijobiy imkoniyatlarini rivojlantirish, muammolarini bartaraf etish va unga zarur tarbiyaviy yordam ko'rsatishga yo'naltirishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. - Toshkent : Yoshlar nashriyot uyi, 2018. - 96 b.
2. Forobiy Abu Nasr. Fozil odamlar shahri. - Toshkent : Yangi asr avlodi, 2016.
3. Ingenkamp K. Pedagogik diagnostika / nemis tilidan tarjima. - Moskva : Pedagogika, 1991. - 240 b.
4. Mavlonova R.A., Rahmonqulova N.H., Vohidova N.H., Matnazarova K.O. Pedagogika nazariyasi va tarixi : darslik. - Toshkent : Fan va texnologiya, 2010. - 464 b.
5. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. - Toshkent : O'zbekiston, 2021. - 464 b.
6. Musurmonova O. Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. - Toshkent : O'qituvchi, 1996.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston - 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni.
9. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. - 2020-yil 23-sentabr. - O'RB-637-son.
10. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 1059-son qarori.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(6)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.